
BILASIZMI?



Bilasizmi?

Yo'qolgan kadastr pasportini qayta tiklash uchun nima qilish kerak?

Yo'qolgan kadastr pasportini qayta tiklash uchun ariza beruvchi DXMga o'zi kelgan holda murojaat etishi yoki YaIDXPda davlat xizmatidan elektron tarzda foydalanish uchun ro'yxatdan o'tishi kerak.

Agar siz o'zingiz kelib murojaat etgan taqdiringizda, DXM xodimlari sizning nomingizdan, YaIDXP orqali murojaat etadilar va belgilangan shakldagi so'rovnomani elektron shaklda mustaqil to'ldiradilar.

Uchinchi shaxslar manfaati uchun harakat qilayotganda, so'rovnomaga belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma hamda so'rovnomaga ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni tasdiqlovchi hujjat taqdim qilinadi.

Kadastr (yig'majildi) pasporti yo'qolganda (yaroqsiz holga kelganda), qog'oz yoki plastik shaklda yangi kadastr pasporti ikki ish kuni mobaynida beriladi.

Hayoyev Mamurjon Rahimjonovich - So'x tuman davlat xizmatlari markazi bosh mutaxassisi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-06-21 14:15:56